

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INNOVATSION FAOLIYATNI
MOLIYALASHTIRISHDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Dilnoza Ruzieva

Assistant.

Ruhshona Xudoyberganova

Talaba.

Qoraqalpoq davlat universiteti.

+998909968223, rozievadylnoz@gmail.com, [@Ruziyeva_Dilnoza12](https://t.me/Ruziyeva_Dilnoza12)

+998886552806, xudayberganovaruxshona@gmail.com, [@rukshona_2086](https://t.me/rukshona_2086)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19052912>

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning nazariy asoslari va amaliy muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari, ularni diversifikatsiya qilish zarurati hamda mavjud to'siqlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni va PQ-3877-son qaror asosida huquqiy muhit tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyati, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, moliyalashtirish manbalari, diversifikatsiya, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практические проблемы финансирования инновационной деятельности в акционерных обществах. В исследовании освещены источники финансирования инновационных проектов, необходимость их диверсификации и существующие препятствия. Также проанализирована правовая среда на основе Закона Республики Узбекистан "Об акционерных обществах и защите прав акционеров" и Постановления PQ-3877.

Ключевые слова: Акционерное общество, инновационная деятельность, инновационный потенциал, источники финансирования, диверсификация, управление рисками, корпоративное управление.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical problems of financing innovative activity in joint-stock companies. The study highlights the sources of financing for innovative projects, the need for their diversification, and existing barriers. Also, based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" and Resolution PQ-3877, the legal environment was analyzed.

Keywords: Joint-stock company, innovation activity, innovation potential, sources of financing, diversification, risk management, corporate governance.

Jahon xo'jaligida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va global raqobatning kuchayishi korxonalar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli barqarorligi innovatsion rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotda salmoqli ulushga ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsiyalarni izchil joriy etish strategik zaruratga aylanmoqda.

Innovatsion faoliyat korxonaning ishlab chiqarish, boshqaruv va marketing jarayonlarini yangilash orqali uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi mahsulotlar yaratish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanish orqali aksiyadorlik jamiyatlari bozordagi mavqeini mustahkamlashi mumkin. Shu bilan birga, innovatsiyalar korxonalarga bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga moslashish hamda raqobat ustunligini shakllantirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining yetakchi subyektlari sifatida shakllanib bormoqda. Ularning faoliyati va moliyaviy munosabatlari 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjat aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalini shakllantirish, aksiyalar emissiyasi, dividend siyosati hamda korporativ boshqaruv asoslarini belgilab beradi.[1]

Shunga qaramay, amaliyotda aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatni moliyalashtirish masalasida qator muammolarga duch kelmoqda. Moliyaviy manbalar yetishmovchiligi, uzoq muddatli investitsiyalarning cheklanganligi, risklarni baholash mexanizmlarining sustligi hamda ichki boshqaruvdagi kamchiliklar innovatsion loyihalarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda.[2]

Shu bois, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda investitsion muhitni yaxshilash yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Avstriyalik iqtisodchi I. Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning dvigateli sifatida baholagan. Unga ko'ra, "yangi kombinatsiyalar" — yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi bozorlar yoki yangi manbalardan foydalanish — iqtisodiy o'sishga olib keladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida aynan ushbu yondashuv doirasida strategik innovatsiyalarni rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[3]. Bu nazariyaga ko'ra, korxonaning ichki resurslari (bilim, malaka, intellektual mulk, texnologik imkoniyatlar) uning asosiy raqobat ustunligini belgilaydi. Innovatsion boshqaruvda aynan ichki resurslardan samarali foydalanish, ularni modernizatsiya qilish va strategik rivojlantirish orqali aksiyadorlik jamiyatining innovatsion salohiyati oshiriladi.

2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va tamoyillarini joriy etish, korxonalarning strategik boshqaruvida aksiyadorlar rolini kuchaytirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Ushbu islohotlar doirasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadida korporativ boshqaruvning ilg'or xorijiy tajribalari o'rganilib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, 400 dan ortiq aksiyadorlik jamiyatida Korporativ boshqaruv kodeksi joriy etilib, 293 jamiyatda bu tizim baholandi. Tahlillar ushbu baholash natijalari innovatsion salohiyatni boshqarishdagi farqlarni ko'rsatib berdi: 32 ta jamiyatda natijalar yuqori, 244 tasida qoniqarli, qolganlarida esa sust holat kuzatildi.[4]

1-rasm



1-rasmda aksiyadorlik jamiyatining innovatsion salohiyati tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan.

Sxemaga ko‘ra, korxonaning innovatsion salohiyati quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalishdan tashkil topadi:

- **Moliyaviy resurslar** – innovatsion loyihalarni amalga oshirishda mablag‘larning yetariligi muhim. Bu yo‘nalish korxonaning o‘z kapitali, aksiyalar chiqarish, kredit va boshqa moliyaviy manbalardan samarali foydalanishini o‘z ichiga oladi.

- **Tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D)** – yangi mahsulotlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va xizmatlarni yaratish jarayoni. Ushbu yo‘nalish innovatsion faoliyatning ilmiy-texnik asosini tashkil qiladi va korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

- **Kadrlar salohiyati** – malakali mutaxassislar va ilmiy-texnik xodimlarning bilim va tajribasi. Innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda inson kapitali eng muhim omil hisoblanadi.

- **Ilmiy-texnik salohiyat** – korxonaning texnologik bazasi, laboratoriyalar, zamonaviy asbob-uskunalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari. Ushbu yo‘nalish yangi texnologiyalarni tez va samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish darajasiga bog‘liq. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish korxonalarga risklarni kamaytirish va loyihalarni barqaror amalga oshirish imkonini beradi. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish quyidagi asosiy manbalardan tashkil topishi mumkin: o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, obligatsiyalar, xorijiy investitsiyalar va davlat grantlari.

Shuningdek, mamlakat miqyosida tashqi moliyalashtirish manbalarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hujjatda, mamlakatni xalqaro kapital bozorlariga integratsiya qilish ishlari talab darajasida olib borilmayotganligi, tashqi moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini jalb qilish va ularning hajmlarini kengaytirish imkoniyatlarini cheklayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu sababli Moliya vazirligiga suveren obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish jarayonida konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish hamda reyting agentliklari bilan O'zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingini olish uchun bitimlar imzolash vakolati berilgan.[5]

Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari
1-jadval

Moliyalashtirish manbasi	Afzalligi	Kamchiligi	Innovatsion loyihaga ta'siri
O'z mablag'lari	Mustaqil, tezkor qaror qabul qilish imkoniyati	Cheklangan hajm, katta loyihalar uchun yetarli bo'lmashligi	O'rta darajada, kichik va o'rta loyihalar uchun qulay
Bank kreditlari	Katta miqdorda mablag' jalb qilish imkoniyati	Foizlar mavjud, to'lov majburiyati	Yuqori, o'sish loyihalari uchun muhim
Obligatsiyalar (shu jumladan suveren obligatsiyalar)	Uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyati	Bozor sharoitiga bog'liqlik, reyting talab etiladi	Yuqori, barqaror moliyaviy manba sifatida
Xorijiy investitsiyalar	Katta hajm, texnologik va boshqaruv tajribasini olib keladi	Valyuta risklari, tashqi shart-sharoitlar	Yuqori, strategik innovatsion loyihalar uchun
Davlat grantlari va subsidiyalar	To'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Cheklangan miqdor, loyihalar tanlab moliyalashtiriladi	O'rta, ijtimoiy va ilmiy loyihalar uchun

Ushbu jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun mavjud manbalar, ularning afzallik va kamchiliklari hamda loyihalarga ta'siri ko'rsatilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'z mablag'lari kichik va o'rta loyihalar uchun qulay bo'lsa, bank kreditlari va xorijiy investitsiyalar katta hajmli strategik loyihalarni amalga oshirishda muhim. Obligatsiyalar, shu jumladan suveren obligatsiyalar, uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish imkonini beradi, davlat grantlari esa ijtimoiy yoki ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashda samarali. Shu tarzda, moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish aksiyadorlik jamiyatlariga innovatsion loyihalarni barqaror va samarali amalga oshirish imkonini yaratadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Birinchi navbatda, moliyaviy manbalar yetishmovchiligi innovatsion loyihalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Ko'plab korxonalar o'z mablag'lari va bank kreditlariga tayanadi, bu esa katta hajmli va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchi muammo — risklarni baholash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Innovatsion loyihalar tabiatan noaniq va yuqori riskli bo'lgani uchun korxonalar ko'pincha ehtiyotkorlik bilan yondashadi va investitsiyalarni kamaytiradi.

Uchinchi muammo — ichki boshqaruvdagi kamchiliklar. Korxonalarda strategik innovatsiyalarni rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonida boshqaruv tizimi, resurslarni taqsimlash va loyihalarni monitoring qilish mexanizmlari to'liq ishlamaydi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy bozorga chiqishda mavjud to'siqlar, valyuta risklari va reyting agentliklari bilan ish jarayonining murakkabligi, tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Ushbu muammolarni aniqlash va tahlil qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonini takomillashtirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotidagi raqamli texnologiyalar joriy etilishi, global raqobatning kuchayishi va tarkibiy o'zgarishlar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yangi talablar bilan yuzma-yuz qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligi innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirishga bevosita bog'liq. Ularning innovatsion salohiyati moliyaviy resurslar, R&D ishlari, kadrlar salohiyati va ilmiy-texnik imkoniyatlardan iborat bo'lib, har bir yo'nalish korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish loyihalarning barqaror amalga oshirilishi va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda moliyaviy manbalar yetishmovchiligi, risklarni baholash mexanizmlarining sustligi, ichki boshqaruvdagi kamchiliklar va tashqi moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar innovatsion loyihalarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu asosda, ilmiy tavsiya sifatida aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, shu jumladan o'z mablag'lari, bank kreditlari, obligatsiyalar va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish; innovatsion loyihalarning risklarini oldindan baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish; ichki boshqaruvni modernizatsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini oshirish; xorijiy moliyaviy bozorga chiqish va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish; shuningdek, strategik innovatsiyalarni aniqlash va ustuvor loyihalarni moliyalashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion salohiyatidan maksimal darajada foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni (yangi tahrir), Toshkent sh., 2014-yil 6-may O'RQ-370-son
2. Kosimova, Z. A. *Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo'llari*. Journal of New Century Innovations, 78 (Issue 2), iyun 2025.
3. Ro'zmetov, Sh. (2025). "Innovatsion faoliyat tushunchasi va uning aksiyadorlik jamiyatlaridagi o'rni", International Scientific Journal of Biruni, 4(1). ISSN (E) 2181-2993.
4. O'zbekiston Respublikasi, "2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan, 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjat.

6. Abishov M., Mamutova A. Features of taxation of construction companies in foreign countries and their use in our country //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 296-304.
7. Rakhmetovna M. A. Methodological Aspects of Management Accounting in Construction Organizations //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2025. – T. 6. – №. 3. – C. 599-606.
8. Abishov M., Mamutova A. FEATURES OF TAXATION OF CONSTRUCTION COMPANIES IN FOREIGN COUNTRIES AND THEIR USE IN OUR COUNTRY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 296-304.
9. Mamutova A., Menlimuratova J. FEATURES OF MATERIALS ANALYSIS IN THE FIELD OF CONSTRUCTION //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 189-193.
10. Mamutova A., Ibragimov A. IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS IN BANKING INSTITUTIONS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 561-567.
11. Mamutova A., Ablezova B. THE ROLE OF AGRICULTURAL PRODUCTION IN THE ECONOMY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 270-273.